

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI,
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

TURSINBAEV SABIRBAY AWESBAY ULÍ

**MARGANES KIRISHMALARIGA EGA KREMNIYNING
ELEKTROFIZIK XUSUSIYATLARIGA BIR O‘QLI BOSIM TA’SIRI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Tursinbaev Sabirbay Awesbay uli

Marganes kirishmalariga ega kremniyning elektrofizik xususiyatlariga bir
o'qli bosim ta'siri..... 3

Турсынбаев Сабырбай Ауесбай улы

Влияние одноосного давления на электрофизические свойства кремния
с примесью марганца 21

Tursinbaev Sabirbay Awesbay uli

Influence of Uniaxial Pressure on the Electrophysical Properties of Silicon
with an Impurity of Manganese 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI,
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

TURSINBAEV SABIRBAY AWESBAY ULÍ

**MARGANES KIRISHMALARIGA EGA KREMNIYNING
ELEKTROFIZIK XUSUSIYATLARIGA BIR O‘QLI BOSIM TA’SIRI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/FM287 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus Davlat pedagogika instituti va O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ispm.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Kamalov Amangeldi Bazarbaevich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Dadamirzayev Muxammadjon Gulomqodirovich fizika-matematika fanlari doktori, professor Pulatova Dilaram Sobitovna fizika-matematika fanlari nomzodi
Yetakchi tashkilot:	Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «13» 06 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100057, O'zbekiston, Tashkent sh., Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy, Tel.: (+99871)248-79-94, faks: (+99871)248-79-92, e-mail: info@ispm.uz.)

Dissertatsiya bilan institut Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (60 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel.: (+99871) 248-79-59; e-mail: info@ispm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «28» 05 kuni tarqatildi.

(2024 yil «28» 05 dagi 60 raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.B. Utamuradova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, f.-m.f.d., professor

J.J. Hamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash Ilmiy kotibi, (PhD) k.i.x.

N.A. Turgunov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, f.-m.f. d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yarimo‘tkazgichlar fizikasi sohasida dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida kremniyni chuqur energetik sathlarni hosil qiluvchi kirishma atomlari bilan legirlab, uning asosiy parametrlarini o‘zgartirish orqali yangi turdagi materiallar olish va olingan yangi materiallar asosida turli fizik kattaliklarni o‘lchaydigan datchiklar yaratish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda o‘tuvchi metallar bilan legirlangan kremniyning tenzoelektrik xususiyatlarini har tomonlama tadqiq qilish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, tubdan yangi, o‘ta sezgir, o‘ta kichik o‘lchamli datchiklar va mexanik deformatsiyalarni o‘lchovchi qurilmalarni ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda kremniy kristallining tenzoelektrik, elektrofizik, fotoelektrik, optik va boshqa xususiyatlarini o‘rganish hamda datchiklarning konstruksiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan yarimo‘tkazgichli bosim datchiklari yuqori sezgirlikga ega bo‘lishi va fizik parametrlarining kichikroq qiymatini aniqlay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq yarimo‘tkazgichli datchiklarning ko‘pchiligi bunday xossalarga ega emas. Shuningdek, o‘lchov qurilmalari uchun to‘g‘ri bosim datchigini tanlashda uning narxi, o‘lchash aniqligi va uzoq muddatli barqaror ishlashi muhim rol o‘ynaydi. Bu borada marganes kirishmalariga ega kremniyning tenzoxususiyatlarini o‘rganish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda kremniyning kristall panjarasi xossalarini tubdan o‘zgarishiga olib keluvchi, marganes kirishma atomlari bilan legirlash asosida sezgirliги yuqori bo‘lgan datchiklarni yaratish uchun yangi materiallarni olish texnologiyasini ishlab chiqish borasida muayyan natijalarga erishilmoqda. Bu borada fizik parametrlari bir vaqtning o‘zida bir necha turdagi tashqi ta’sirlarga nisbatan yuqori sezgir materiallarni olishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababli marganes kirishmalari bilan legirlangan kremniyning elektrofizik xususiyatlariga bir o‘qli bosim ta’sirini o‘rganish dolzarb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5032-son qarorida «... fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlash, iqtisodiyot tarmoqlaridagi muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy ishlar ko‘lamini kengaytirish; ilmiy tadqiqotlarning va innovatsiya ishlarining natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish...»¹ kabi vazifalar belgilangan. Mazkur yo‘nalishda mikro- va nanoelektronika qurilmalarini ishlab chiqarish uchun zarur elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlarga ega bo‘lgan yangi yarimo‘tkazgichli materiallar va datchiklarni yaratish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5032-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son «Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-son «Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyani rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. «Energia, energiya resurslarini tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunga qadar kirishmaviy elementlar bilan legirlangan kremniy monokristalli hamda uning tenzoxususiyatlarini tadqiq qilish muammolari quyidagi ilmiy markazlarda o‘rganilgan: Milliy fanlar va texnologiyalar universiteti (Pokiston), Funktsional bio-integratsiyalangan elektronika va energiyani boshqarish laboratoriyasi (Koreya), Qattiq jismlar, tuzilmalar va materiallar mexanikasi markazi, Aerokosmik muhandislik kafedrasini (AQSh), Ostindagi Texas universiteti, Elektrotexnika va kompyuter injiniringi kafedrasini, Urbana-Champaigndagi Illinoys universiteti (AQSh).

Rossiya olimlari G.A. Malign, V.I. Nikolaev, V.M. Krimov, A.V. Soldatov va ularning ilmiy maktablari tomonidan $Ni_{49}Fe_{18}Ga_{27}Co_6$ qotishma kristallarining $\langle 011 \rangle$ o‘qi bo‘ylab bosim ta’sir ko‘rsatilganda ularning deformatsiya xususiyatlariga issiqlik bilan ishlov berishning ta’siri o‘rganilgan. K.Y. Kraynova (Rossiya) tomonidan polikristall olmos materiali asosida bosimga sezgir tenzodatchikni ishlab chiqarish texnologiyasi haqida ilmiy tadqiqodlar olib borilgan. I.G. Protsenko, Yu.A. Brusensovlarning (Rossiya) ilmiy ishlarida mexanik deformatsiya va kuchlanishlarning ta’siri yarimo‘tkazgich tenzosezgir elementlar yordamida o‘rganilgan, V.V. Kaminskiy, A.A. Molodix, N.N. Stepanov, S.M. Solovev, N.M. Volodin, V.A. Ivanovni (Rossiya) ilmiy maktablari tomonidan samariy sulfid birikmasi asosida yarimo‘tkazgich tenzo va barorezistorlarni tashqi bosimni o‘lchashdagi xususiyatlari o‘rganilgan.

Hozirgi vaqtda akademiklar R.A. Muminov, A.T. Mamadalimov, M.K. Baxadirxanov, S. Zaynobidinov, professorlar Sh.B. Utamuradova, X.S. Daliev, N.F. Zikrillaev, X.M. Iliev va boshqalar kremniy namunalarini kirishma atomlari bilan legirlash va olingan material asosida yaratilgan tenzodatchiklar imkoniyatlarini kengaytirishni ilmiy asoslab berishgan. O.O. Mamatkarimov,

O. Ximmatkulov, I.G. Tursunovlar tomonidan bir o'qli elastik deformatsiyani $Sb-p-Si<Mn>-Au$ strukturali diodning sirtiy-barer qismi Volt-Amper xarakteristikasiga ta'siri o'rganilgan. G. Gulyamov, A.G. Gulyamov tomonidan yorug'lik ta'sirida $p-n$ o'tishning tenzosezuvchanligi o'rganilgan. S.M. Otajonov, A.M. Xudoyberdiev tomonidan suyuq geliy haroratida chuqur sath xosil qiluvchi kirishmalarga ega yarimo'tkazgich yupqa qatlamlarining deformatsiyaga sezgirligi o'rganilgan. Yarimo'tkazgich yupqa qatlamlarning turli haroratlarda deformatsiyasi paytidagi qarshiligining nisbiy o'zgarishi aniqlangan va 4.2 K suyuq geliy haroratida deformatsiya sezgirligini aniqlash mexanizmini tushuntiruvchi strukturaviy model taklif qilingan. 4.2 K haroratda yarimo'tkazgichli yupqa qatlamlarning deformatsiya sezgirligini aniqlash uchun qurilma ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, yarimo'tkazgichli tenzosezgir materiallar asosida yaratilgan datchik va qurilmalarga bag'ishlangan amaliy va nazariy tadqiqotlar tahlili bu sohaning imkoniyatlari yanada keng ekanligini ko'rsatadi. Lekin, shu kunga qadar marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning juda kichik bir o'qli nuqtaviy radial bosim ta'sirida tenzoxususiyati va uning parametrlarini boshqarish o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F-2-77 «Modellashtirish asosida ichki nuqsonlarni hisobga olgan holda yarim o'tkazgichli asboblarning ishonchligini bashorat qilishning takomillashtirish usuli» (2016-2020 yy.) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi marganes kirishmasi kiritilgan kremniyning elektrofizik xususiyatlarini bir o'qli nuqtaviy radial bosim ta'sirida o'rganish va $p-Si<B,Mn>$ asosida sezgir tenzodatchiklar yaratishning texnologik jarayonini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

tenzosezgir $p-Si<B,Mn>$ namunalarni olishning texnologik rejimini yaratish;
turli solishtirma qarshiliklarga ega bo'lgan $p-Si<B,Mn>$ namunalarning tenzoxossalarini o'rganish;

bir vaqtning o'zida bir o'qli nuqtaviy radial bosim va harorat ta'sirida bo'lgan $p-Si<B,Mn>$ namunalarning elektrofizik parametrlarini o'rganish;

bir vaqtning o'zida bir o'qli nuqtaviy radial bosim va yorug'lik ta'sirida o'ta kompensatsiyalangan $p-Si<B,Mn>$ namunalarning elektrofizik parametrlarini o'rganish;

turli qiymatlarga ega bo'lgan elektr maydonidagi $p-Si<B,Mn>$ namunalarning elektrofizik parametrlariga bir o'qli nuqtaviy radial bosimning ta'sirini o'rganish;

kompensatsiyalangan kremniyning fizik parametrlariga bir o'qli nuqtaviy radial bosim, yorug'lik, harorat, elektr maydonining ta'sirida tenzoxossalarini o'zgarishini o'rganish uchun qurilma yaratish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida turli solishtirma qarshiliklarga ega bo'lgan $p-Si<B,Mn>$ namunalari olingan.

Tadqiqot predmeti marganes kirishmalariga ega kremniy namunalarning tenzoxossalarini tadqiq qilish hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi usullar qo'llanilgan: marganes kirishmasi bilan legirlangan kremniy namunalarning elektrofizik kattaliklarini o'lchashga asoslangan zamonaviy Ecopia HMS-7000 Xoll effektini o'lchash qurilmasidan, kremniyning fotoelektrik xossalarini o'rganish uchun IKS-21 spektrometrdan, $p-Si<B,Mn>$ namunalarning tenzoxossalarini o'rganish uchun dissertatsiya ishini amalga oshirish jarayonida yaratilgan bir o'qli nuqtaviy radial bosim beruvchi qurilmadan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tok tashuvchilarining konsentratsiyasi $n=1.14 \cdot 10^{11} \div 2.39 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ va solishtirma qarshiligi $\rho=7.92 \cdot 10^2 \div 1.53 \cdot 10^5 \text{ Om} \cdot \text{sm}$ bo'lgan tenzosezgir $p-Si<B,Mn>$ namunalarni yaratishning texnologik rejimi ishlab chiqilgan;

ilk bor $T=1060 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratda legirlangan $p-Si<B,Mn>$ namunalarning solishtirma qarshiligi, $5 \cdot 10^5 \div 3 \cdot 10^6 \text{ Pa}$ oraliqdagi bosim (P) ta'sirida 3 barobar ortishi va dastlabki kremniy namunalarda esa sezilarli o'zgarishlari aniqlangan;

doimiy bir o'qli nuqtali radial bosim $P=5.16 \cdot 10^5 \div 7.74 \cdot 10^7 \text{ Pa}$ va $T=30 \div 75 \text{ }^\circ\text{C}$ ta'sirida $p-Si<B,Mn>$ namunalarda deformatsiya sezuvchanligi (α) dastlabki namunalarga nisbatan 15 marta ortishi aniqlangan;

ilk bor bir o'qli nuqtali radial bosim $P=4,14 \cdot 10^6 \div 2,76 \cdot 10^8 \text{ Pa}$ va $I=1800 \div 4600 \text{ luks}$ yorug'lik ta'sirida bo'lgan $p-Si<B,Mn>$ namunalarning tenzosezgirlik qiymati 2-3 barobar ortishi aniqlangan;

$p-Si<B,Mn>$ namunalarga 1-15 V/sm diapazondagi tashqi elektr maydoni (E) ta'sir qilganda ularning tenzosezuvchanligi dastlabki namunalarga nisbatan taxminan 3 marta oshishi aniqlangan;

bir o'qli nuqtaviy radial bosim ($10^6 \div 10^9 \text{ Pa}$), yorug'lik ($1 \div 50000 \text{ luks}$), harorat ($1 \div 150 \text{ }^\circ\text{C}$) va elektr maydoni ($1 \div 15 \text{ V}/\text{sm}$) ta'sirida bo'lgan o'ta kompensatsiyalangan kremniyning tenzosezuvchanligini o'rganish uchun qurilma yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagidan iborat:

kremniyda marganes kirishma atomlarining konsentratsiyasini o'zgartirish orqali kremniyning bir o'qli nuqtaviy radial bosim ta'siriga sezgirlikni oshirish imkoniyati ko'rsatilgan, uning asosida tenzosezgirlik yuqori bo'lgan yangi sinf datchiklarini yaratish imkoniyatlari ochib berilgan;

deformatsiyaga sezgir, marganes atomlari bilan legirlangan ($p-Si<B,Mn>$) yangi turdagi namunalarni olish texnologik jarayonining bosqichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi marganes atomlari bilan legirlangan kremniyning elektrofizik xususiyatlari, diffuziya vaqtida va diffuziyadan keyingi har xil tashqi omillar ta'sirida yuz beruvchi fizik jarayonlarni tadqiq qilishda keng qo'llaniladigan tadqiqot usullaridan shuningdek, tayyorlangan namunalarning elektrofizik kattaliklarini o'lchashda zamonaviy Xoll effektiga asoslangan o'lchash qurilmasidan, kremniyning fotoelektrik xossalarini o'rganish uchun IKS-21 spektrometrdan, namunalarning tenzo xossalarini o'rganish uchun dissertatsiya ishini

amalga oshirish jarayonida bir o'qli nuqtaviy radial bosim beruvchi qurilmadan foydalanilganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Olingan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati $p-Si<B,Mn>$ namunalari asosida tayyorlangan namunalarning tabiatiga bog'liq ravishda uning tenzoelektrik parametrlarining o'ziga xos jihatlari aniqlanganligi bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kremniyni kirishma marganes atomlari bilan legirlashda diffuziya kattaliklarining kirishma to'plamlari strukturaviy tuzilishiga ta'sirini aniqlash va kichik qiymatlardagi bosimlarni qayd etuvchi qurilmalar va datchiklar yaratishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

$p-Si<B,Mn>$ ning elektrofizik xususiyatlariga bir o'qli nuqtaviy radial bosim ta'sirini tadqiq qilish asosida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

tenzosezgir, yangi turdagi $p-Si<B,Mn>$ namunalarni olishning texnologik jarayonining asosiy bosqichlarini aniqlanganligi; dastlabki namunalarda tenzosezgirlik $10\div 12\%$ ni tashkil qilishi, $p-Si<B,Mn>$ namunalarda esa tenzo sezgirlik qiymati 3 martaga ortishi; $p-Si<B,Mn>$ namunalarining $5.16\cdot 10^5\div 7.74\cdot 10^7 Pa$ oraliqdagi doimiy bosim (P) ta'sirida va $30\div 75^\circ C$ oraliqdagi harorat (T) oraliq'ida deformatsiya sezuvchanligi (α) ning qiymati 15 martaga ortishidan «FOTON» aksiyadorlik jamiyatida tenzosezgir kremniy strukturalar olishda qo'llanilgan («O'zeltexsanoat» aksiyadorlik kompaniyasining 2023 yil 19 apreldagi 04-3/484-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish jahon analoglari darajasiga mos keladigan elektrofizik parametrlarga ega namunalarni ishlab chiqarish imkonini bergan;

bir vaqtning o'zida bir o'qli nuqtaviy radial bosim va yorug'lik ta'sirida $p-Si<B,Mn>$ yuqori kompensatsiyalangan kremniyning elektrofizik parametrlarini o'rganilishi natijasida, ya'ni $1800\div 4600 luks$ yorug'lik (I) diapazonida va bir o'qli nuqtaviy radial bosim (P) $4.14\cdot 10^6\div 2.76\cdot 10^8 Pa$ hamda elektr maydoni qiymati (E) $5\div 15 V/sm$ oraliqda oshirilganda $p-Si<B,Mn>$ namunalarining tenzosezgirlik deyarli 3 barobarga ortgan. Ushbu natijalardan Qoraqalpoq davlat universitetida 2016–2020 yillarda bajarilgan OT-F-2-77 raqamli «Modellashtirish asosida ichki nuqsonlarni hisobga olgan holda yarim o'tkazgichli asboblarning ishonchligini bashorat qilishning takomillashtirish usuli» mavzusidagi fundamental tadqiqod loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 1 maydagi 2/14-17/04-829-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish $p-Si<B,Mn>$ namunalarining tenzoelektrik xususiyatlarini batafsil tavsiflash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida bajarilgan ishlarning asosiy natijalari bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, ular, 7 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar

Vazirligi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya ishi hajmi 42 ta rasm va 10 ta jadvalni o'z ichiga olgan holda 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi ochib berilgan, dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'ekti va predmeti, tadqiqotning usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, hamda dissertatsiya hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumot berilgan.

«**Yarimo'tkazgich materiallar asosida ishlaydigan zamonaviy tenzodatchiklarning holati**» deb nomlangan birinchi bobda tenzosezgir materiallar, tenzodatchiklar konstruksiyalari, yarimo'tkazgich tenzodatchiklarni turlari va ularni yasashidagi muammolar bo'yicha adabiyotlardagi ma'lumotlar tahlili keltirilgan. Nazariy va eksperimental ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqib dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiyaning «**Kremniy asosida yangi turdagi tenzodatchik ishlab chiqish texnologiyasi**» deb nomlangan ikkinchi bobda marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarini olish texnologiyasi, kremniy yuzasiga nikelni kimyoviy usul bilan cho'ktirish texnologiyasi, tenzodatchiklarning elektr parametrlarini o'rganishda Xoll usulidan foydalanishni tadqiq qilish usullari, Si<Mn> namunalarining tenzoxossalari tadqiq qilish uchun qurilmaning yaratilishi yoritib berilgan.

Kompensatsiyalangan kremniy namunasini olish uchun Choxralskiy usuli bilan o'stirilgan KDB-1, KDB-2, KDB-3, KDB-4 va KDB-5 markali monokristall kremniylardan foydalanildi. Dastlabki quyidagi xususiyatlarga ega: qoldiq kislorod konsentratsiyasi $\sim 10^{17} \div 10^{18} \text{ sm}^{-3}$ oralig'ida, bor atomlarini konsentratsiyasi $N_B \approx 7 \cdot 10^{19} \text{ sm}^{-3}$, solishtirma qarshiligi $\rho \sim 1 \div 5 \text{ Om} \cdot \text{sm}$, dislokatsiya zichligi $S \sim 10^3 \cdot \text{sm}^{-2}$ va *p*-tipi o'tkazuvchanlik. Kirishma sifatida tozaligi 99.999% va elektro-aktiv konsentratsiyasi $N_{Mn} \approx 2 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}$ bo'lgan marganesdan foydalanildi.

Namunalar $8 \times 4 \times 1 \text{ mm}^3$ o'lchamlarda kesib olindi. Namunalarni kesish jarayoni, belgilangan aniq burchak ostida ushlab turuvchi moslamalar bilan ta'minlangan, o'lchamlar aniqligi $\pm 10 \text{ }\mu\text{m}$ bo'lgan yuqori effektivlikka ega va sifatli kesishga mo'ljallangan laboratoriya va ishlab chiqarishda qo'llanadigan, olmos ipli keskich STX-402 (Diamond wire saw) qurilmasi bilan amalga oshirildi.

Namuna mexanik kesilish jarayonida yuzaga kelgan shikastlanishlarni mexanik va kimyoviy usullar bilan yo'qotish maqsatida $1\text{HF}:3\text{HNO}_3$ tarkibdagi eritmada sekin yemirilish asosida amalga oshirildi. So'ngra qarama-qarshi yuzlarning

parallelligini $\sim 2\div 3 \mu m$ aniqlikda ta'minlaydigan *M1* dan *M14* gacha markali karbid kremniy mikro kukunlari yordamida kremniy sirtiga mexanik ishlov berildi.

Diffuziyadan oldin, sayqallash jarayonida namunalarning yuza qismida hosil bo'lgan mexanik shikastlangan sohalarni va yog'larni yo'qotish uchun namunalar yana bir bor bidistillirlangan suvda va $1HNO_3:3HCl$ kimyoviy aralashmalar yordamida tozalandi. So'ngra namunalar bidistillirlangan suv va spirtida yuvilgan va quritilgan kvarts ampulalariga joylashtirilib, kirishma marganes elementlari solingandan so'ng havosi $P\sim 10^{-4}\div 10^{-6} mm.sim.ust.$ bosimgacha so'rib olindi.

Marganes kirishma atomlarining kremniyga diffuziyasi belgilangan haroratni $\pm 1^\circ C$ aniqlikda ushlab turuvchi vakuum quvurli pechda amalga oshirildi.

Diffuziya harorati kvarts ampulasi yoniga joylashtirilgan platina-platinorodiy termoparasi yordamida aniqlandi.

Marganesning kremniyga diffuziyasi gaz fazasida amalga oshirildi. Kvarts ampulaga solingan marganes elementi miqdori, diffuziya haroratida hosil qilgan bug'ning bosimi namuna sirtida kerakli konsentratsiyani ta'minlaydigan qilib tanlab olindi.

So'ngra diffuziya jarayonida namunaning butun hajmi kirishma marganes atomlari bilan bir xil to'yinishi uchun $t=5\div 20$ minut davomida yopiq vakuum olingan ampulalarda olib borildi;

Kremniy namunalarning boshlang'ich namunadagi texnik kirishma atomlarining konsentratsiyasiga qarab, turli darajada marganes kirishma atomlari bilan kompensatsiyalangan namunalarni olish maqsadida ($\rho = 10^2\div 10^5 Om\cdot sm$) marganes diffuziyasining harorati va vaqti matematik hisoblanib $T=1050\div 1150^\circ C$ harorat oralig'ida diffuziya jarayoni amalga oshirildi.

Diffuziyadan keyin namunalar joylashgan kvarts ampula maxsus yog'ga tushirilib $200\div 300^\circ C/s$ tezlikda sovutildi. Bundan so'ng namunalar kvarts ampuladan olinib, mexanik va kimyoviy ishlov berish yo'li bilan tozalandi.

Termik ishlov berish va boshqa diffuziya sharoitlarini ta'sirini hisobga olish uchun xuddi shu sharoitda nazorat kremniy namunalari tayyorlandi. Diffuziyadan keyin oksid qatlam bilan qoplangan sirt qatlamini olib tashlash uchun namunalarning barcha tomoni 100 mikrondan qarama-qarshi yuzlarning tekis parallelligini saqlangan holda, karbid kremniy mikro kukunlari bilan mexanik ishlov berildi.

Adabiyot tahlilidan bizga ma'lumki, marganes atomlari kremniyda ikkita donor energetik sathlar hosil qiladi. Marganes atomlarining bir va ikki karra ionlashgan energiyali sathlarni hosil qilib, ular quyidagilarga teng:

$$E_{Mn1} = E_c - 0.3 eV \text{ va } E_{Mn2} = E_c - 0.55 eV. \quad (1)$$

Elektroaktiv marganes atomlarining konsentratsiyalari $N_{Mn} \approx 2 \cdot 10^{15} sm^{-3}$ ga teng bo'ladi.

Marganes kirishma atomlarini kremniydagi eruvchanligi va diffuziya koeffitsiyenti $T=1150^\circ C$, $N_{Mn}=8 \cdot 10^{15} sm^{-3}$ da elektroaktiv marganes atomlarining maksimal konsentratsiyasida retrograd xarakteriga ega bo'lib, diffuziya koeffitsiyenti quyidagi ifoda bilan ta'riflanadi:

$$D_{Mn} = 0.26 \exp(-1.3/kT). \quad (2)$$

Bu ifodadan marganes kirishma atomlarining aktivlanish energiyasi boshqa kirishma atomlariga (masalan: oltingugurt va selenga) nisbatan kichik.

Kremniy namunalarga omik kontaktlar kremniy yuzasiga nikelni kimyoviy usul bilan cho'ktirish yoki "VUP-4" vakuum qurilmasida kremniy sirtiga nikel kirishma atomlarini purkash yo'li bilan olindi. Har qanday turdagi kontaktlarni olishdan oldin namunalarda ma'lum kimyoviy eritmalar asosida tozalangan ($1H_2O_2:1NH_4OH:5H_2O$ peroksid-ammiak eritmasi), olingan kontaktlarning sifati namunalarning Volt-Amper tavsifini o'lchash orqali tekshirilgan.

Namunalarning elektr parametrlari (elektr o'tkazuvchanligi, harakatchanligi va konsentratsiyasi) Xoll effekti usuli yordamida aniqlandi. Sinov namunasi magnit maydoni $H=3000$ ersted bo'lgan doimiy magnitning qutblari orasida maxsus tutgich bilan joylashtirilgan.

Magnit maydonning yo'nalishi magnitni 180° ga aylantirish orqali o'zgartirildi; qarshilik quyidagi formula bo'yicha hisoblanildi:

$$\rho = \frac{V_0 \cdot l}{I \cdot W \cdot t} \quad [Om \cdot sm]. \quad (3)$$

Bu yerda I –namunadan o'tadigan tok, V_0 –kontaktlar orasidagi kuchlanish, l –potensial kontaktlar orasidagi masofa, W –namuna eni, t –namuna qalinligi. Xoll doimiysi quyidagi formula bo'yicha hisoblandi:

$$R_H = \frac{V_H \cdot t \cdot 10^8}{IB} \quad [sm^3/KI]. \quad (4)$$

Bu yerda Xollning V_H – E.Yu.K., B –magnit maydon induksiyasi. Xoll harakatchanligi quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$$\mu_H = \frac{R_H}{\rho} \quad [sm^2/V \cdot s]. \quad (5)$$

Asosiy tok tashuvchilarning konsentratsiyasi quyidagi formula bo'yicha hisoblandi:

$$n, p = \frac{l}{eR_H} \quad [sm^{-3}]. \quad (6)$$

Natijalar 1–jadvalda keltirilgan.

1–jadval

№	Namuna	Tipi	$R_x (Om)$	$\rho, (Om \cdot sm)$	μ	$n, p (sm^{-3})$
1	KDB-1	p	$2.796 \cdot 10^3$	0.875	320	$22.3 \cdot 10^{15}$
2	KDB-3	p	$1.416 \cdot 10^3$	3.1	426.7	$4.4 \cdot 10^{15}$
3	KEF-50	n	$62 \cdot 10^3$	46.75	1450	$1 \cdot 10^{14}$
4	KEF-100	n	$134.3 \cdot 10^3$	112	1125	$4.677 \cdot 10^{13}$

Tashqi nuqtaviy radial bir o'qli mexanik bosim ta'sirida marganes kirishma atomlarining strukturalariga ega kremniyning elektrofizik parametrlarini o'lchashda ishonchli natijalarini olish uchun qorong'ulikda hamda yoritilmaganda ham sinxron (silliq) o'zgarishiga imkon beradigan maxsus qurilma ishlab chiqildi.

1–rasmda ko'rsatilgan qurilmaning avvalgi versiyalaridan avzalligi va farqi shundan iboratki, yarimo'tkazgichlarga nuqtaviy radial bosimni ta'sirini o'rganish bilan bir vaqtning o'zida qo'shimcha quyidagi tashqi ta'sirlarni: yorug'lik, harorat va elektr maydonining qiymatlarini o'zgartirish mutlaqo avtomatik tarzda boshqarishga imkon beradi.

Yaratilgan qurilma yordamida bir o'qli nuqtaviy radial bosim qiymatini

$P=10^5 Pa$ dan $P=10^8 Pa$ gacha o'zgartirgan holda ta'sir qilib, kremniy namunalarning tenzo-parametrlarini o'lshash imkoniga ega bo'lindi. Bundan tashqari yorug'lik intensivligi 1 luksdan 15000 luks gacha, $T=30\text{ }^\circ C$ xona haroratidan $T=150\text{ }^\circ C$ gacha bo'lgan oralig'ida yorug'lik va harorat bilan ta'sir qilish imkoni yaratildi.



1–rasm. Nuqtaviy radial bosim ta'siri ostida yarimo'tkazgich namunalarning elektrofizik parametrlarini o'lchashdagi qurilmaning uchinchi versiyasining tashqi ko'rinishi

“Dissertatsiyaning $Si<Mn>$ namunalarning tenzoxususiyatlarini tadqiq qilish” deb nomlangan uchinchi bobida turli haroratlarda, yoritilganliklarda va turli xil konsentratsiyali $Si<Mn>$ namunalarning tenzoelektrik xususiyatlari tadqiq qilingan.

2–jadvalda keltirilgan kirishma marganes atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarning tenzoxususiyatlari materialning solishtirma qarshiligiga qarab, nuqtaviy radial bosimni $P=5\cdot 10^5 Pa$ dan $P=3\cdot 10^7 Pa$ gacha oralig'ida o'zgartirilgandagi holati o'rganildi (2–rasm).

2–jadval


Namunalarning Xoll effekti usulida aniqlangan elektrofizik parametrlari

No	Boshlang'ich material	Tipi	ρ , ($Om\cdot sm$)	μ , ($V\cdot s/sm^2$)	n, p (sm^{-3})
1	KDB-3	P	$7.92\cdot 10^2$	120.7	$2.39\cdot 10^{13}$
2	KDB-3	P	$5.5\cdot 10^3$	224.9	$2.49\cdot 10^{12}$
3	KDB-3	P	$5.64\cdot 10^4$	274.8	$2.03\cdot 10^{11}$
4	KDB-3	P	$1.53\cdot 10^5$	330.2	$1.14\cdot 10^{11}$

2–rasmdan ko'rinib turibdiki, solishtirma qarshiligining maksimal o'zgarishi $\rho\sim(5\div 7)\cdot 10^3 Om\cdot sm$ bo'lgan namunalarga to'g'ri keladi. Solishtirma qarshiligi $\rho\geq 7.9\cdot 10^2 Om\cdot sm$ dan kam bo'lgan va $\rho\leq 5\cdot 10^4 Om\cdot sm$ dan katta bo'lgan namunalarda esa, ρ ning o'zgarishi, $\rho\sim 5\cdot 10^3 Om\cdot sm$ namunalarga nisbatan ancha kichik bo'lishi aniqlandi.

Solishtirma qarshiligi $\rho\sim(5\div 7)\cdot 10^3 Om\cdot sm$ bo'lgan barcha namunalarda bosim ostida ρ ning sezilarli o'zgarishi tajriba natijalari asosida aniqlandi.


Nazorat kremniy namunasining solishtirma qarshiligining o'zgarishi 2–rasm 1 egri chiziqda ko'rsatilgan. Nazorat namunalarida ρ ning maksimal o'zgarishi 10 % dan 12% gacha oraliqda bo'ladi (2–rasm).



2 – rasm. Sinov namunalarining bosim ta'sirida solishtirma qarshiligining nisbiy o'zgarishi

1–dastlabki namuna, 2–marganes atomlari bilan legirlangan kremniy $\rho=1.53 \cdot 10^5 \text{ Om}\cdot\text{sm}$, 3–marganes atomlari bilan legirlangan kremniy $\rho=5.64 \cdot 10^4 \text{ Om}\cdot\text{sm}$, 4–marganes atomlari bilan legirlangan kremniy $\rho=5.5 \cdot 10^3 \text{ Om}\cdot\text{sm}$.


Shu bilan birga, tekshirilgan bosim oralig'ida, kirishma marganes atomlari bilan legirlangan namunalarning solishtirma qarshiligi (ρ) deyarli uch barobar o'zgardi, ya'ni, solishtirma qarshilikning 3 martagacha anomal darajada katta o'zgarishi kuzatildi.




3–rasm. Turli qiymatlardagi radial nuqtaviy bosimlarda marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy tenzosezgirlicini haroratga bog'liqligi

Bu tajribada $T=30 \text{ }^\circ\text{C}$, $T=50 \text{ }^\circ\text{C}$, $T=70 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratlarda $P=10^6 \text{ Pa}$ dan $P=7.74 \cdot 10^7 \text{ Pa}$ gacha bo'lgan nuqtaviy radial bosimning marganes atomlari bilan legirlangan kremniyning elektrofizik xususiyatlariga ta'siri o'rganildi (3–rasm). Marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning tenzosezgirlicini haroratga bog'liqligi turli bosim qiymatlarida o'rganildi. 3–rasmda ko'rsatilganidek, nuqtaviy radial bosim ta'sirida, marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalaridan o'tadigan tokning qiymati chiziqli ortib borishi aniqlandi.

Kirishma marganes atomlari bilan legirlangan, solishtirma qarshiligi $\rho=5.5 \cdot 10^3 \text{ Om}\cdot\text{sm}$ bo'lgan kremniy namunasiga turli haroratlarda radial nuqtaviy bosimga bog'liqligi o'rganildi. Bu tajribalarda kremniy namunasining solishtirma qarshiligini (ρ) o'zgarishi 4–rasmda ko'rsatildi. Harorat oshishi bilan kremniy namunalarining tenzosezuvchanligi ortishi aniqlandi. Bu jarayon haroratni $T=70\div 75 \text{ }^\circ\text{C}$ qiymatigacha davom etadi, lekin haroratning yanada oshishi kremniy namunalarining tenzosezgirlikni yomonlashishiga olib keldi.



4–rasm. Turli haroratlarda bosim ostida marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarining solishtirma qarshiligining ($\rho=5.5 \cdot 10^3 \text{ Om}\cdot\text{sm}$) nisbiy o'zgarishi: 1– $T=30 \text{ }^\circ\text{C}$, 2– $T=40 \text{ }^\circ\text{C}$, 3– $T=50 \text{ }^\circ\text{C}$, 4– $T=70 \text{ }^\circ\text{C}$




5–rasm. Marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarining tenzosezuvchanligini haroratga bog'liqligi

Marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarining haroratga nisbatan α –tenzosezgirlikning o'zgarishi 5–rasmda ko'rsatildi.

Olingan tajriba natijalari nafaqat tenzodatchiklarni keng harorat oralig'ida qo'llash imkoniyatini, balki harorat va bosim ortishi natijasida yuqori harorat sezgirlik ham mavjudligini ko'rish mumkin. Tajriba ma'lumotlariga asoslanib aytishimiz mumkinki, kirishma marganes atomlari bilan legirlangan kremniy noyob fizik imkoniyatlarga ega bo'lgan, yuqori samarali tenzodatchiklarni yaratish uchun eng qulay (optimal) material ekan. Odatdagi yarimo'tkazgich materiallardan farqli, marganes atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarini xona haroratida ancha yuqori tenzosezuvchanlik mavjud ekanligi aniqlandi.

Olingan tajriba natijalarini mavjud nazariyalar yordamida tushuntirib bo'lmaydi. Olingan materialdagi bunday yuqori tenzosezgirlik kremniy kristall panjarasida joylashgan marganes kirishma atomlarining holatini bosim ta'sirida o'zgarishi bilan bog'liq ekan.



6–rasm. Solishtirma qarshiligi $\rho=2.4 \cdot 10^3 \text{ Om} \cdot \text{sm}$ bo‘lgan marganes atomlari bilan legirlangan kremniyning yoritilganlikni turli intensivligi ta’sirida tenzosezuvchanlikning nisbiy o‘zgarishi


6–rasmdan ko‘rinib turibdiki, nuqtaviy radial bosimning qiymatini oshishi bilan fototokni nisbiy o‘zgarishi chiziqli ravishda ortdi, bu tajriba natijalari bir vaqtning o‘zida yoritilganlik va bosim ta’sirini tadqiq qiluvchi datchiklarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Shuni ta’kidlash kerakki, yorug‘lik intensivligining ortishi bilan fototokning nisbiy o‘zgarishi kuchayadi, bu natijalarni tenzodatchikning sezgirlikini oshirishda foydalanish mumkin.


Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, marganes kirishma atomlari bilan kompensatsiyalangan kremniy namunalarini integral yorug‘lik bilan yoritilganda tenzosezuvchanligi oshar ekan.

